

**TOTALITAR SOVET HUKIMATDA QATAG‘ON SIYOSATI BOSHQARUV
INSTRUMENTI SIFATIDA**

O‘tegenov Ha‘kimbay

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti
O‘zbekiston va Qoraqalpoqston tarixi kafedrası docent.

Qalbaeva Dilnaz Jalgasbay qizi

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix yonalishi I kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709724>

Annotatsiya. Sovet hukumati davridagi qatag‘on siyosati XX asr tarixining eng ta‘sirchan va bahsli mavzularidan biridir. Ushbu maqola Sovet Ittifoqi hukumatining qatag‘on siyosatini boshqaruv vositasi sifatida qo‘llashini o‘rganish orqali, totalitar rejimlarning fuqarolik jamiyati hamda shaxsiy huquq va erkinliklar ustidan qanday nazorat o‘rnatganini tahlil qiladi. Sovet qatag‘onlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘sha davrda millionlab oddiy fuqarolar hayotiga qatag‘onning qanday ta‘sir ko‘rsatganligini aniq tushunish imkonini beradi.

Bu tahlillar orqali zamonaviy demokratik jamiyatlar qatag‘on siyosatlari qo‘llanilgan o‘tmishdan qanday saboq olish mumkinligini ko‘rib chiqish mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar hozirgi va kelajak avlodlarga o‘z hukumatlarining harakatlarini kuzatib borishning muhimligini eslatadi va shu orqali adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi zaruriyatni ta‘kidlaydi.

Shunday qilib, Sovet Ittifoqi misolida totalitarizmning inson huquqlari va erkinliklariga ta‘siri haqida chuqur tasavvurlar hosil qilish va bunday siyosatning kelgusida qo‘llanilishining oldini olishga harakat qilish muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar: totalitar rejim, repressiv siyosat, qo‘rqitish, kollektivlashtirish, muxolifat, quloq, xalqaro izolyatsiya, kommunistik partiya, denonsatsiya.

Аннотация. Политика репрессий советской власти является одной из самых впечатляющих и спорных тем в истории XX века. Эта статья анализирует, как тоталитарные режимы контролировали гражданское общество и личные права и свободы, изучая использование репрессивной политики правительства Советского Союза в качестве инструмента управления. Широкомасштабные исследования советских репрессий позволяют четко понять, какое влияние оказали репрессии на жизнь миллионов простых граждан в то время.

Посредством этих анализов можно рассмотреть, какие уроки можно извлечь из прошлого, в котором применялась политика репрессий современных демократических обществ. Эти исследования также напоминают нынешним и будущим поколениям о важности следить за действиями своих правительств и тем самым подчеркивают необходимость построения справедливого общества. Таким образом, на примере Советского Союза важно создать глубокие представления о влиянии тоталитаризма на права и свободы человека и попытаться предотвратить дальнейшее применение такой политики.

Ключевые слова: тоталитарный режим, репрессивная политика, запугивание, коллективизация, оппозиция, кулачество, международная изоляция, коммунистическая партия, денонсация.

Annotation. *The policy of repression during the Soviet era is one of the most influential and controversial topics in the history of the 20th century. This article analyzes how totalitarian regimes controlled civil society and personal rights and freedoms by examining the application of the Soviet government's repressive policies as a means of governance. Extensive research on Soviet repression allows for a clear understanding of the impact of repression on the lives of millions of ordinary citizens during that period.*

Through these analyses, it is possible to see what lessons can be learned from the past, where modern democratic societies used repressive policies. These studies also remind current and future generations of the importance of following the actions of their governments and thereby emphasize the need to build a just society. Therefore, it is important to create a deep understanding of the impact of totalitarianism on human rights and freedoms, using the example of the Soviet Union, and to try to prevent the further application of such a policy.

Keywords: *totalitarian regime, repressive policy, intimidation, collectivization, opposition, kulak, international isolation, communist party, denunciation.*

Totalitarizm hukumatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va hatto shaxsiy hayotning barcha sohalarida to'liq nazorat o'rnatishga intiluvchi hukumat tuzumidir. Bu tuzum o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, yangi partiyaning hukmronligi, kuchli yetakchi timsoli, davlat targ'ibot mashinasi orqali ommaviy axborot vositalarini boshqarish hamda fuqarolarning fikr va so'z erkinligini cheklash kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Totalitar tuzumlarda hukumat raqobatni yo'q qiladi, siyosiy dissidentlarni quvg'in qiladi va o'ziga qarshi bo'lgan har qanday g'oyani keskin bostiradi.

Qatag'on esa, yuqorida ta'kidlanganidek, hukumat yoki boshqaruv organlarining o'z muxoliflarini, ya'ni muxolifatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy faoliyatini cheklash yoki yo'q qilish maqsadida qo'llaydigan tajovuzkor choralarni qo'llashida namoyon bo'ladi. Bunday chora-tadbirlarga qamoq, siyosiy ta'qib, jazolash, deportatsiya kabi shakllar kiradi. Bunda deyarli barcha holatda kuch ishlatish va qo'rqitish siyosatiga tayanadi. Totalitar rejimlar bu vositalarni o'z boshqaruvini mustahkamlash va siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida keng qo'llaydi.

Sovet Ittifoqi davrida Kommunistik Partiya yagona siyosiy kuch sifatida hukmronlik qildi.

Mamlakat tarixida birinchi Lenin, keyinchalik Stalin kabi shaxslar kuchli yetakchi sifatida qaraldi.¹ Ular atrofida shaxsga sig'inish madaniyati shakllandi, bu esa o'z o'rnida ularning siyosiy qarorlari so'zsiz bajarilishini ta'minladi. Ularning davrida har qanday shubhali shaxslar muxolifat sifatida baholanishi, qamoqqa olinishi, hatto o'limga hukm qilinishi mumkin edi. Bu fuqarolik jamiyati va shaxsiy erkinliklarning kuchli tarzda cheklanganligini o'zida namoyon etdi.²

1928 - 1933-yillarda SSSRda kollektivlashtirish deb nom olgan siyosat amalga oshirildi.

Buning natijasida qishloqdagi o'ziga to'q dehqonlar, yer egalari barchasi mulkidan mahrum qilindi, ko'pchiligi quloq sifatida qamoqqa olindi, surgun qilindi, o'lim jazosi berildi.

¹ Robert Service – A History of Modern Russia: From Tsarism to the Twenty-First Century, 1947. https://www.hup.harvard.edu/file/feeds/PDF/9780674034938_sample.pdf;

² Simon Sebag Montefiore – "Stalin: The Court of the Red Tsar", 2003. <https://www.univ.ox.ac.uk/book/stalin-court-red-tsar/>

Kollektivlashtirish oqibatida 15 mln. ga yaqin dehqon o'z yerlaridan surgun qilindi, bir necha millioni yo'q qilindi. Kollektivlashtirishning dahshatli oqibati shunday bo'lib, SSSR tarixining oxirigacha davlat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmadi. 1933-yildagi dahshatli ocharchilikda Ukraina, Kuban, Volga bo'yi, Qozog'istonda 7 mln. dan ortiq kishi ochlikdan vafot etdi.

Shuningdek, SSSRda 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida yangi siyosat va yangi normativ bazani shakllantirishda rejalarni amalga oshirish davri bo'ldi. O'sha paytda qishloq xo'jaligi modernizatsiyasiga asosiy dushman sifatida iqtisodiy jihatdan o'ziga to'q dehqonlar belgilandi va ular "quloqlar" sa'fida deb hisoblandi va yo'q qilindi. Sud organlari musodara usulidan foydalanib, repressiv siyosatning asosiy ijro quroliga aylandi. Jazo tizimi 1922 yilgi Jinoyat kodeksining o'zgartishlar kiritilgan moddalarini o'z ichiga oldi. Sud bosimi va dehqonlarni ta'qib qilish RSFSR Jinoyat kodeksining 58, 59-9 (qasdga tayyorgarlik ko'rish), 58-10 (kolxoz operatsiyalarini buzishga olib keluvchi targ'ibot), 61 (1-3) (densonatsiya, ya'ni qonunbuzarlik to'g'risida xabar qilmaslik) kabi moddalariga asoslanib amalga oshirildi.³

1936-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksining yangi tahririda uning 58-moddasiga o'zgartishlar kiritilgan va mazmuni kengaytirilgan edi, bu esa deyarli har qanday shaxsni mazmundan kelib chiqqan holda ayblash imkonini berdi. Shunga o'xshash qonunchilikdagi "moslashtirilgan" o'zgarishlar hukumatning qatag'on siyosati uchun sun'iy qonuniy asos vazifasini bajardi.

1929-1930-yillarda Sovet hukumati siyosiy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ko'plab siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va boshqa "xalq dushmanlari" deb topilgan guruhlarini faol ravishda ta'qib qildi. Bu davrda ko'plab siyosiy faollar, ziyolilar, hatto Kommunistik Partiyaning o'z a'zolari ham xavfsizlik xizmatlari tomonidan qamoqqa olindi, sudlandi yoki otib tashlandi.

Qatag'on siyosati keng miqyosda olib borilganini Robert Konkuestning "Buyuk Terror: qayta baholash" kitobida kuzatishimiz mumkin. Unda ko'rsatilishicha, 1937-38-yillar davomida "Buyuk terror" kampaniyasi doirasida taxminan 1 million kishi qamoqqa olingan va ulardan 690 mingdan ortig'i otib tashlangan.

O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, kommunistik partiya saflarini "tozalash" kampaniyasi natijasida O'zbekiston Kompartiyasi a'zolarining 25,6 foizi partiyadan chiqarildi. 1937-1938-yillarda o'ylab topilgan soxta ayblovlar bo'yicha O'zbekistonda 41000 dan ortiq kishi qamoqqa olinib, ulardan 37000 dan ko'prog'i jazoga tortildi, 6920 kishi esa otib o'ldirishga hukm qilindi. Birgina davlat va jamoat arboblari, yozuvchi, shoir va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 kishi otib tashlangan edi.

Bunday tadbirlar Sovet hukumati uchun o'ziga xos ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keldi.

Qatag'on siyosati oqibatida hukumat o'z pozitsiyasini yanada mustahkamladi. Qo'rquv muhitini yaratish orqali Sovet hukumati o'z fuqarolarining siyosiy faolligini chekladi va ularni itoatkorlikka o'rgatdi. Bu usul orqali siyosiy barqarorlikning ta'minlanishiga erishildi.

Lekin qatag'on oqibatlarining afzalliklaridan ko'ra kamchiliklari ko'p bo'ldi. Xususan, mahalliy aholida hukumatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ldi. Faqat qo'rquv orqali bu ishonchsizlik ochiq-oydin namoyon bo'lmadi.

³ Жанбосинова А.С. — Өткен ғасырдың 1920-шы жылдардың аяғы-1930-шы жылдардың басындағы экономикалық жаңғырту кезеңіндегі кеңес мемлекетінің қуғын-сүргін саясаты.

Shu bilan birga, bunday siyosat natijasida iqtisodiy resurslarning noto'g'ri sarflanishi yuz berdi. Bu qishloq xo'jaligida ishchi kuchining kamayib ketishiga olib keldi. Shular qatorida, ko'plab tajribali ishchilar, olimlar va mutaxassislar qatag'on qurboni bo'ldi yoki mamlakatdan qochishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Qatag'on siyosati hukumat a'zolari ichida ham barqarorlikni zaiflashtirdi. Hukumat a'zolari o'rtasida doimiy qo'rquv va o'zaro shubha muhiti shakllanib bordi va bu hukumatning samarali ishlashiga to'sqinlik qildi.

Bu tarzda boshqaruvning jamiyatga ta'siri va uzoq muddatli oqibatlari haqida ham so'z yuritish o'rinlidir. Chunki bu hozirgi va kelajakdagi siyosiy tizimlarni shakllantirishda muhim sanaladi.

Qatag'onlar oqibatida ko'plab oilalarda ajralish yuz berdi, odamlar o'z yaqinlaridan judo bo'ldi. Bu jamiyatning ijtimoiy to'qimalariga zarar yetkazib, odamlar o'rtasidagi ishonch va hamkorlik muhitining salbiy rivojlanishiga yo'l ochib berdi. 1920-yillar oxiri va 1930-yillarda ziyoli qatlamlarning ta'qib qilinishi sovet fani va madaniyatining xilma-xilligini keskin cheklab qo'ydi. Repressiv siyosat oqibatida Sovet Ittifoqi hukumati xalqaro maydonda keskin tanqid qilindi va mamlakatning uzoq muddatli izolyatsiyada qolishiga ta'sir ko'rsatdi.

Sovet ittifoqi davrida amalga oshirilgan qatag'on siyosatining tadqiqotlari bu siyosatning keng ko'lamli va chuqur ta'sirini yoritib beradi. Bu orqali hukumat o'z hokimiyatini mustahkamlagan bo'lsa-da, inson huquqlarining buzilishi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning pasayishi, shuningdek jamiyatning madaniy va ma'naviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Zamonaviy dunyoda bu tarixiy tajriba hukumatni o'z fuqarolariga nisbatan munosabatini qayta ko'rib chiqishga undaydi va davlat hokimiyatining cheklanishining ahamiyatini eslatib turadi. Repressiv siyosat qo'llanilgan mamlakatlarda siyosiy va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishi o'rniga ko'pincha ishonchsizlik va ijtimoiy ziddiyatlar kuchayganini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bunday siyosat yuritish oqibatlari faqat hukumatning qisqa muddatli manfaatlariga xizmat qilgan va uzoq muddatli zararlarni keltirib chiqargan. Qatag'on siyosatlari inson huquqlarining qo'pol buzilishiga, ijtimoiy-madaniy-iqtisodiy samarasizlikka va xalqaro izolyatsiyaga sabab bo'lgan. Bu tarixiy tajriba hukumatlarning o'z kuchlarini qanday qo'llashlari va fuqarolik jamiyatini qanday qo'llab-quvvatlashlari kerakligi haqida saboq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert Conquest - "The Great Terror: A Reassessment" (1990). https://books.google.co.uz/books/about/The_Great_Terror.html?id=ubXQSk2qfXMC&redir_esc=y
2. Robert Service – A History of Modern Russia: From Tsarism to the Twenty-First Century, 1947.
3. https://www.hup.harvard.edu/file/feeds/PDF/9780674034938_sample.pdf
4. Simon Sebag Montefiore – "Stalin: The Court of the Red Tsar", 2003. <https://www.univ.ox.ac.uk/book/stalin-court-red-tsar/>

5. Жанбосинова А.С. – Өткен ғасырдың 1920-шы жылдардың аяғы-1930-шы жылдардың басындағы экономикалық жаңғырту кезеңіндегі кеңес мемлекетінің қуғын-сүргін саясаты.
6. <https://bulletin-history.kaznu.kz/index.php/1-history/article/download/416/336>